

ZOOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

O'ralova Nilufar Utayevna

*A.Qodiriy nomli Jizzax DPU Tabiiy fanlar fakulteti Zoologiya va anatomiy kafedrasi
o'qituvchisi Tel. +99890 515 55 87*

Annotatsiya: *mazkur maqolada Zoologiya fanini o'qitish jarayonida mashg'ulotning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan interfaol metodlardan foydalanish yo'llari xususida fikr yuritilgan.*

Аннотация: *В статье представлены методы использования интерактивных методов, направленные на повышение качества и эффективности обучения в процессе преподавания зоологии.*

Abstract: *The article presents methods of using interactive methods aimed at increasing the quality and efficiency of training in the process of teaching Zoology.*

Kalit so'zlar: *Interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish, o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lish.*

Ta'lim tizimi globallashtayotgan bir sharoitda talabalarning bir davlatda ta'lim olib ikkinchi bir mamlakatda ishlab keta olish ko'nikmasini shakllantirish hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Bu esa barcha fan sohalari va ta'lim jarayonlariga yangicha yondoshuvni yoki mavjud ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalashni talab etmoqda. Yer yuzida odamzod ko'payib borar ekan unga teskari propotsiyada insonlar tirikligini ta'minlovchi tabiiy oziq-ovqatlar zahirasi kamayib boradi. Sheksiz ehtiyojlarni chekli resurslar bilan ta'minlashning birdan biri yo'li ilm-fan imkoniyatlaridan foydalanishdir. Ilm-fan rivoji esa ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan aloqador sanaladi. Ta'lim jarayonlarini hozirgi davr talablari asosida takomillashtirib borish mavjud o'qitish usul-vositalarini innovatsiyalashtirib borishdir.

Insonlar uchun kerakli tabiiy oziq-ovqatlar zahirasi ko'p jihatdan hayvonot dunyosi bilan bo'liq. Hayvonot dunyosi bir tomondan unsonlar uchun oziq-ovqat: sut, qatiq, go'sht kabilarni ta'minlashda asosiy o'rin tutsa ikkinchi tomondan o'simliklar uchun kerakli tabiiy og'itlar etishtirib berishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois tabiiy jarayonlar me'yoriy tizimida hayvonot olamining ahamiyati katta sanaladi. Shu bois hayvonot dunyosini tadqiq etadigan soha zoologiya fanini o'qitish va uning yutuqlarini hayotga tadbiiq etishga zarurat ortib bormoqda.

Ortib borayotgan zaruriyatni qondirish uchun bizningcha mazkur fanni o'qitish eng samarali metodlarni ishlab chiqish va u asosida to'plangan bilimlarga tayanilgan holda hayvonot dunyosi vakillarini asrab avaylash va ular populyatsiyasini amalga oshirish lozim. Bizningcha, quyidagi o'qitish usul- vositalari bu jarayonda muhim o'rin tutadi:

1. Interaktiv darslar: Birxillilikdan chiqib, interaktiv darslar va elektron ta'lim vositalaridan foydalanish hozirgi vaqtda muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Dars jarayonida virtual laboratoriyalar, animatsiyalar, interaktiv testlar va onlayn o'quv platformalari zoologiya fanini o'qitishda o'rganuvchilarga qiziqarli va samarali ta'lim berishga yordam beradi.

2. Amaliy mashg'ulotlar: Hayvonlar bilan bog'liq amaliy mashg'ulotlar va tajribalar talabalar uchun o'rganish jarayonini zavqlantiradi. Bu usul, talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotga aylantirish va tushunchalarini chuqurlashtirishda juda foydali bo'ladi.

3. Guruhlarga bo'lingan xolda ish bajarish: Guruhlarda ishlash talabalarga jamiyatda ishbilarmonlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Zoologiya fanini o'qitishda guruh ishlari orqali, talabalar masalalar ustida birgalikda ishlash va jamiyatdagi muammolarga birgalikda yechim topishni o'rganishadi.

4. Ta'lim jarayonini individuallashtirish: O'rganuvchilarning xususiyatlari va talabalarining ko'nikmalariga ko'ra ta'lim jarayonini individuallashtirish muhimdir. O'qituvchilar, o'rganuvchilarning ma'lumot darajasini aniqlab, ularning zarur talablariga mos ta'limni taqdim etish uchun boshqa usullardan foydalanishadi.

5. Integrativ ta'lim: Zoologiya fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali, o'rganuvchilarga multidisiplinar tushunchalarni oshirish imkoniyatini beradi. Biologiya, ekologiya, kimyo, fizika va boshqa fanlar bilan integrativ ta'lim berilishi, talabalar uchun ma'lumotlarni bir-biriga bog'liqligini tushuntiradi.

Zoologiya fanini o'qitish metodikasi rivojlanmoqda va bu esa yangi texnologiyalar bilan birga o'rganuvchilarga qiziqarli va samarali ta'lim berishga yordam beradi. O'qituvchilar va o'rganuvchilar bu rivojlanishlardan foydalanib, zoologiya fanini eng yaxshi shaklda o'rganishlari va o'rgatishlari mumkin bo'ladi. Zoologiya fanini o'qitishda o'quvchilar bilan ishlashning ahamiyati juda katta. Talabalar bilan ishlash, ularning ma'lumotlarini oshirish va tushunchalarini chuqurlashtirish uchun juda foydali bo'ladi. Quyidagi sabablarga ko'ra talabalar bilan ishlashning ahamiyati muhim hisoblanadi:

1. Ko'nikmalarini oshirish: Talabalar bilan ishlash, ularning ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchi va talaba birgalikda masalalar ustida ishlash orqali, talaba o'zining fikrlarini ifoda qilish va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar olgan nazariy bilimlarini amaliyoyda qo'llashlari natijasida ko'nikma hosil qilishadi. Bu esa o'z o'zidan olingan bilimni mustaxkamlanishiga sabab bo'ladi.

2. Tushunchalarni chuqurlashtirish: Talabalar bilan ishlash, tushunchalarni chuqurlashtirish uchun eng yaxshi usul bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlar, interaktiv darslar va hayvonlar bilan tanishish orqali, talabalar o'zlarini qiziqarli va ma'rifiy muhitda his qilishlari mumkin. Talabalar bilan olib borilgan tajriba va boshqa amaliy ishlar mavzuni yanada yaxshi tushunishga va bilimlarini chuqurlashtirishga sabab bo'ladi. Talabalar va o'qituvchi hamkorligida tashkil etilgan har bir ish jarayoni ma'lumotning yanada tushunarililigini oshiradi.

3. Ishbilarmonlikni rivojlantirish: Talabalar bilan ishlash, ularning ishbilarmonlikni rivojlantirish va jamiyatdagi muammolarga yechim topishga yordam beradi. Qo'shimcha, guruh ishlari orqali, talabalar jamoatda ishbilarmonlikni oshirishga imkon beradi. Talabalarni guruhlarda birlashtirish va berilgan vazifa va topshiriqlarni birgalikda hal etishga undash ularda ishbilarmonligini va ma'suliyatlilik hususiyatlarini shakllantiradi.

4. Jismoniy faoliyatni rivojlantirish: Hayvonlar bilan bog'liq amaliy mashg'ulotlar va tajribalar orqali, talabalar jismoniy faoliyatni rivojlantirish va tabiat bilan yaqinlashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari amaliy mashg'ulotlar va tajribalar orqali hayvon organizmi anatomik va fiziologik jihatlarini o'rganishga erishadi. Bu esa talabalarga fan yuzasidan olayotgan bilim va ko'nikmalarining shakllanib borishiga sabab bo'ladi. Misol uchun hashorotlarni o'rganish kishidan sabr, kuch quvvat hamda harakatni talab etadi. Ya'ni ma'lum bir turni o'rganishda uni sabr bilan kuzatish, tutib olib tashqi va ichki tuzulishini o'rganish o'rganuvchidan sabr, kuch quvvat talab etadi va buning bari insonning jismoniy rivojlanganligi bilan bevosita bog'liq.

5. O'rganish motivatsiyasini oshirish: Talabalar bilan ishlash, ularning o'rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Interaktiv darslar, amaliy mashg'ulotlar va hayvonlar bilan tanishish orqali, talabalar o'rganish jarayonidan zavqliroq va qiziqarliroq his qilishlari mumkin. Bundan tashqari, talabalar bilan ishlash, ularning ijtimoiy muhitda hamkorlik qilish, jismoniy va intellektual rivojlanishlariga yordam beradi. Shuningdek, bu usul o'rganuvchilarning o'zlashtirgan ma'lumotlarni sinovdan o'tkazish va qayta o'rganishlari uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Zoologiya fanining maqsadi va vazifalari hayvonlar dunyosini o'rganish va tushunishga yo'naltirilgan ilmiy yo'nalishdir. Bu fanni o'rganuvchilar hayvonlar rivojlanish jarayonlarini, anatomic va fiziologik jarayonlarini, ekologiyalarini, taksonomiyalarini va evolyutsiyasini o'rganish orqali hayvonlar dunyosini tushunishga yordam beradi. Zoologiya fanining asosiy maqsadlariga asosan quyidagilar kiradi. Hayvonot dunyosini tushunish ya'ni zoologiya, hayvonlar dunyosini tushunishga yordam beradi. Bu fanni o'rganuvchilar, hayvonlarning turli xil turlarini, ularning qanday yashash yo'llari, o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari va ekologi yalarini o'rganish orqali hayvonlar dunyosini tushunishadi. Hayvonlar taksonomiyasi: Zoologiya fanida hayvonlar taksonomiyasi, ya'ni hayvonlarning turli xil turlarini tartiblash va sinflanishining ilmiy usullari o'rgatiladi. Bu taksonomik tushunchalar, hayvonlarning qanday qismlanishi va sinflanilishi haqida o'quvchilarga nazariy bilimlarni o'rgatadi. Hayvonlar anatomiyasi organlarining anatomic tuzulishini, fiziologiyada esa hayvonlar anatomiyasi bilan bog'langan xolda ya'ni anatomic ichki va tashqi organlarining ishlashi ya'ni fiziologik ish bajarishini o'rganiladi. Bu bilimlar, hayvonlar organlarining tuzilishi va faoliyati haqida o'quvchilarga tushunchalar beradi. Evolyutsiya: Zoologiya fanida evolyutsiya, ya'ni hayvonlar dunyosidagi turli xil turlarning o'zgarishi va rivojlanishi o'rganiladi. Evolyutsiya konsepti, hayvonlarning

turli xil turlarining asosiy rivojlanish jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, zoologiya fanni hayvonlar dunyosini tushunish va tadqiq etish uchun muhim ilmiy yo'nalish sifatida o'rganiladi. Bu fanni o'rganuvchilar hayvonlarning qanday yashash, rivojlanish jarayonlari va ularning dunyoga o'z ta'siri haqida nazariy bilimlarni o'rgangan holda hayvonlar dunyosini tushuntirishadi. Zoologiya darslarida multimedia vositalaridan foydalanish va ularni tatbiq etish davomida o'quv jarayonida o'zigaxos yangi usul vujudga keladi. Ularni o'quv materiallarini ko'rgazmaliligini oshishi, o'quvchilarning bilim samarasini nazorat qilish imkoniyatining paydo bo'lishi, o'qituvchining o'z ishfaoliyatini yangi uslub va usullar asosida tashkil etishga yondashuvlar bilan bevosita izohlash mumkin. Zoologiya darslarida «Sutemizuvchilar» sinfi haqida ma'lumot beruvchi mavzular hajmi kattaligi va birmuncha murakkabligi bilan umurtqalilar tipining boshqa sinflaridan ajralib turadi. O'rganiladigan mavzularning murakkablashib borishi, hayvon organizmining mukammalashishi bilan ular tanasida organlar, ularning vazifasi ham o'zigaxos tarzda o'zgarib borishi o'quvchini biroz «qiynab» qo'yadi. O'quvchilarga mavzu yuzasidan ma'lumotlarni kompyuter yordamida qabul qilishga bo'lgan qiziqishlarini va bevosita zoologiya dars samaradorligini oshirishda undan foydalanishni hisobga olgan holda, o'zlashtirish qiyin bo'lgan mavzularni kompyuter vositalari asosida tatbiq etish imkoniyatlarini qo'llash orqali dars samaradorligini yanada oshirish mumkin. Zoologiya darsligidagi mavzularni belgilab olish, ularni hartomonlama o'rganib, zaruriy materiallar tanlash asosida kompyuterlashgan dars ishlanmalarini dasturlashtirish mumkin. Multimedia vositalarida sutemizuvchi hayvonlar hayotini o'zida mujassam etgan ma'lumotlar jamlanmasi, test topshiriqlari, topishmoqlardan keng foydalanish ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda zoologiya fanini o'qitishda amaliy va nazariy usullarni umumlashtirgan holda tashkil etish lozim. Amaliy darslar o'quvchilarga hayvonlar va ularning modda aylanishi, anatomik va fiziologik jarayonlarini ko'rishga imkoniyat beradi. Bu darslar, hayvonlarni nazariy va amaliy bilimlar orqali o'rganish ya'ni ketma ketliklari, laboratoriya hamda amaliy ishlarini o'z ichiga oladi. Hayvonlarni real hayotda ko'rish yoki maxsus muassasalarda ko'rsatish, o'quvchilarga tushunchalarini mustahkamlash uchun muhim omillardan biri sanaladi. Ma'lumotlar bazalaridan foydalanish zoologiya tarixi, taksonomiya, turlar o'rnini bilish, biologiya asoslarini, ekologiya va hayvonlarning muhim ko'rsatkichlarini o'qitish uchun ma'lumotlar bazasi keng jihatdan qo'llaniladi. Bu esa o'z navbatida fanni yanada chuqur o'rganishga olib keluvchi sabablardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprel 187 sonli

" Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb -hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida " gi qarori.

2. A. Abdulkarimov, A. G'ofurov, K. Nishonboyev, J. Hamidov, B. Toshmuhamedov, O. Eshonqulov « Biologiya akademik litsey va kasb -hunar kollejlari uchun darslik ». - Toshkent, 2014.

3. O. Mavlonov « Biologiya (Zoologiya) ». -Toshkent, 2017. 2022/6/20 10:43

4. "Zoologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda virtual laboratoriya mashg'ulotlarini qo'llash" Salimova Sarvinoz Farxodovna